



“INTELLEKTUAL MULK TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTNING O’RNI”

Abdujabborov Faryozbek Baxodirjon o’g’li.

Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Patentshunoslik 4-bosqich talabasi

Mavzu: “Intellectual mulk tizimida sun’iy intellektning o’rni”

Faryozbek003@gmail.com

+99893 233 70 84

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15095466>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Mart 2025 yil

Ma’qullandi: 24- Mart 2025 yil

Nashr qilindi: 27- Mart 2025 yil

KEY WORDS

Intellectual mulk, sun’iy intellekt, patentlash, mualliflik huquqi, tovar belgisi, sanoat namunasi, tijorat siri, plagiat, kontrafakt mahsulotlar, qonunchilik

ABSTRACT

Ushbu maqolada intellektual mulk tizimida sun’iy intellektning o’rni va uning ta’siri tahlil qilinadi. Intellectual mulk inson tafakkuri natijasida yaratilgan aqliy faoliyat mahsulotlarini huquqiy himoya qilish tizimi bo’lib, patentlar, mualliflik huquqlari, tovar belgilari, sanoat namunasi va tijorat sirlari kabi asosiy yo’nalishlarni qamrab oladi. Sun’iy intellekt bu jarayonlarga sezilarli ta’sir ko’rsatib, ixtirolarni yaratish, patentlash jarayonini tezlashtirish va mualliflik huquqlarini himoya qilishda muhim rol o’ynamoqda. Tadqiqotda sun’iy intellektning patent hujjatlarini tahlil qilish, o’xshashliklarni aniqlash, patentga layoqatlilik darajasini baholash hamda huquq buzilish holatlarini oldindan aniqlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, tovar belgilari va mualliflik huquqlari sohasida sun’iy intellektning o’rni, plagiat va kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashishdagi imkoniyatlari ochib bermoqda. Xalqaro tajriba asosida Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Xitoyda sun’iy intellektga oid qonunchilik tahlil qilinib, bu boradagi huquqiy noaniqliklar ko’rsatib o’tilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektning intellektual mulkni himoya qilish tizimidagi ahamiyatini ochib beradi va ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini asoslantiradi.

Intellectual mulk tushunchasi va uning ahamiyati. Intellectual mulk inson tafakkuri natijasida yaratilgan aqliy faoliyat mahsulotlarini huquqiy himoya qilish tizimidir. Bu tushuncha ilm-fan, texnologiya, san’at, adabiyot, tadbirkorlik va boshqa ko’plab sohalardagi ijodiy ishlanmalarni qamrab oladi. Intellectual mulkning asosiy turlari quyidagilardir: patentlar, mualliflik huquqlari, tovar belgilari, sanoat namunasi va tijorat sirlari. Patentlar ixtirolarni huquqiy himoya qilish vositasi bo’lib, ixtirochiga o’z ixtirosidan ma’lum muddat davomida foydalanish huquqini beradi. Mualliflik huquqi esa adabiy, san’at va ilmiy asarlar, musiqa, dasturiy ta’minot kabi ijodiy mahsulotlarni himoya qiladi. Tovar belgisi brend yoki

savdo belgisini boshqa shunga o'xshash mahsulotlardan ajratib turuvchi belgi hisoblanadi. Sanoat namunasi mahsulotning tashqi ko'rinishini himoya qilsa, tijorat sirlari korxonaga yoki kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini saqlab qolish uchun ishlatiladi¹.

Intellektual mulk jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Birinchidan, u innovatsiyalarni rag'batlantiradi, chunki ixtirochi va ijodkorlar o'z ishlaridan foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ikkinchidan, intellektual mulk bozorda raqobat muhitini shakllantirib, adolatli o'yin qoidalarini ta'minlaydi. Uchinchidan, intellektual mulk jamiyatning madaniy va ilmiy taraqqiyotini rag'batlantiradi, chunki yangi g'oyalar va texnologiyalar ochiq bozor orqali keng jamoatchilikka yetib boradi.

Bundan tashqari, intellektual mulk huquqi biznes uchun ham katta ahamiyatga ega. U kompaniyalarga o'z brendlari himoya qilish, bozorga yangi mahsulotlarni olib chiqishda ustunlikka ega bo'lish va innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sishga erishish imkonini beradi. Shu sababli, intellektual mulk tizimi global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan.

Sun'iy intellektning intellektual mulk tizimiga ta'siri. Sun'iy intellekt intellektual mulk tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, SI yangi ixtirolar va texnologiyalar yaratishda muhim vositaga aylanib bormoqda. Masalan, dori vositalarini ishlab chiqishda yoki texnologik muammolarni hal qilishda sun'iy intellekt algoritmlari samarali va tezkor yechimlarni taklif etib kelmoqda.

Ikkinchidan, SI patent hujjatlarini tahlil qilish va patent berish jarayonini tezlashtirishda katta yordam bermoqda. Sun'iy intellekt patent so'rovlari orasidagi o'xshashliklarni aniqlash, patent huquqlarini buzilish xavfini oldindan aniqlash va patentga layoqatlilik darajasini baholashda qo'llanilmoqda. Bu esa patent ekspertlarining ishini yengillashtiradi va patentlash jarayonining shaffofligini oshiradi.

Mualliflik huquqi sohasida esa sun'iy intellektning o'rni tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan san'at asarlari, musiqa, adabiyot va boshqa ijodiy mahsulotlar huquqiy himoyaga ega bo'lishi masalasi hali hamon bahs-munozaralarga sabab bo'layapti.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt patent tizimida bir necha asosiy yo'nalishda qo'llanilmoqda. **Ixtirolarni yaratish jarayonida** SI yangi materiallar, dori vositalari, va texnologiyalarni yaratishda tadqiqotchilarga yaxshigina ko'makchi hisoblanadi. Masalan, SI algoritmlari kimyoviy tarkiblarni tahlil qilib, yangi dorilar sintez qilish uchun eng yaxshi formullarni tavsiya qilib kelmoqda. **Patent hujjatlarini tahlil qilish jarayonlarini ko'radigan bo'lsak** sun'iy intellekt patent ma'lumotlar bazalarida tezkor qidiruvlarni amalga oshirmoqda va mavjud patentlar orasidan o'xshashlarini topadi va ixtiro yangiligi (novelty) darajasini baholashda ekspertlarga yordam bermoqda. **Patent olish jarayonini tezlashtirish sohasida ham samarali tasirini ko'rsatib kelmoqda.** Bugungi kunga kelib patent idoralari SI dan foydalangan holda hujjatlarni avtomatik tahlil qilishi keng qo'llanilmoqda va bu o'z o'zidan rasmiy ekspertiza jarayonini soddalashtirish va patent berish jarayonini tezlashtirish borasida ko'mak bermoqda. **Huquq buzilish holatlarini aniqlash va bartaraf etish borasida** SI texnologiyalar va mahsulotlarni tahlil qilib, patent huquqlarining buzilish xavfini avvaldan aniqlab kelmoqda.

Tovar belgilarini davlat ro'yxatdan olishda va muhofaza hujjati berish bosqichlarida sun'iy intellekt quyidagi yo'nalishlarda muhim o'rin tutib kelmoqda. **O'xshash belgilarni**

¹ Intellektual mulk, darslik, TDYU jamoasi, 2020

aniqlash boraasida sun'iy intellektning tutgan o'zni patent idoralarining ma'lumotlar bazasida mavjud tovar belgilarini skanerlab, yangi belgining o'xshashlik darajasini aniqlashda yordam beradi. Bu esa tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini tezlashtiradi va huquqiy nizolarni oldindan oldini oladi. **Brend monitoringini amalga oshirish** SI doimiy ravishda internet va savdo maydonchalarini kuzatib borib, tovar belgilari noqonuniy ishlatilayotgan holatlarni aniqlaydi. Bu o'z o'zida kontrafakt va sifatsiz, istemolchilar sog'lig'i uchun havfli bo'lgan maxsulotlar savdosi va bozorda keng ildiz otishini oldini olishga va yilda bir marta "Kontrafaktsiz oy" oyiligi tadbirlarini o'tkazishga hojat qolmagan bo'lardi deb hisoblaymiz.

Zamon taraqqiy etgan sayin mualliflik huquqi sohasida sun'iy intellektning o'zni tobora kengayib bormoqda. **Nusxalash va plagiatni aniqlash borasida** turli hil dasturlar va saytlarga nazar soladigan bo'lsak SI tarmoqlarda mualliflik huquqlarini buzish holatlarini aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, u internetdan asarlarni qidirib topib, ularning original muallifiga tegishli ekanligini tekshiradi. **Mualliflik huquqlarini avtomatik ro'yxatdan o'tkazish deponentlash tizimini misol qilib oladigan bo'lsak**, Ba'zi platformalar sun'iy intellekt yordamida yangi yaratilgan asarlarni avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tkazib, mualliflik huquqlarini himoya qila olish hususiyatiga ham ega. Sun'iy intellekt yordamida mualliflar huquqlarini himoya qilish tizimida olib borilayotgan halqaro tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Fransiya intellektual mulk tizimining mualliflik huquqini himoya qilish va noqonuniy yuklab olishlarga qarshi kurash bo'yicha eng yuqori organdir. U internetni kuzatib boradi va mualliflik huquqini buzganlarga jarima solish huquqiga ega. 2009 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Qonunning takroriy qoidabuzarliklar uchun internetga kirishni to'xtatib qo'yishga ruxsat beruvchi qismi 2013-yil 8-iyulda Fransiya hukumati tashabbusi bilan qaytarib olingan edi, chunki jazo qonunbuzarliklarga nomutanosib edi. Doimiy ravishda qoidabuzarlarga jarima yoki boshqa jazo choralarini qo'llash huquqi o'z kuchida qoldi. Qonunning kiritilishi bahs-munozaralar bilan birga bo'ldi, chunki qonun foydalanuvchilarning zarariga mualliflik huquqi egalari foydasiga katta farq bilan ishlagan.

Ular buni tushunishadimi yoki yo'qmi, aksariyat kompaniyalar qimmatli savdo sirlariga ega bo'lishlari mumkin. "Tijorat sirlari" haqida o'ylanganda, Coca-Cola yoki Kentukki Fried Chicken retsepti yoki ehtimol Google algoritmi kabi narsalar xayolga kelishi mumkin. Ammo tijorat sirlari bu misollardan kengroqdir va ko'pchilik kompaniyalar ega bo'lgan mijozlar ro'yxati, ishlab chiqarish jarayonlari va marketing strategiyalari kabi narsalarni o'z ichiga olishi mumkin ².

Sun'iy intellektning mavjud Intellektual mulk tizimlariga ta'siri va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asar inson tomonidan yaratilgan ish kabi patentlangan yoki mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lishi mumkinmi, degan asosiy munozaralar davom etmoqda.

Yevropa ittifoqining Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunida Intellektual mulkka ta'siri haqida hech qanday eslatma yo'q, bu huquq egasining intellectual mulk qanday himoyalaniishi haqida noaniqlikni qoldiradi. Xuddi shunday, Buyuk Britaniyada ham intellektual mulkni sun'iy intellekt bilan bog'liq xavflardan himoya qilish uchun juda kam qonunchilik mavjud. 2023-yilda Buyuk Britaniya hukumati inson muallifi bo'lmagan kompyuterda yaratilgan asarlar uchun mualliflik huquqini himoya qilish kerakmi yoki yo'qligi bo'yicha maslahatlashuv ochdi, buning natijasida kompyuterda yaratilgan asarlarni himoya qiluvchi Buyuk Britaniya

² <https://www.thomsonhine.com/insights/protecting-trade-secrets-in-the-age-of-generative-ai/>

qonunchiligi davom etdi. Xitoyda sudlar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent asl asarni yaratish jarayonida ma'lum darajada sun'iy intellekt bilan inson ishtiroki mavjud bo'lgan holatlarda mualliflik huquqi himoyasiga olinishi mumkinligini aniqladi ³.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Intelektual mulk, darslik, TDYU jamoasi, 2020
2. Tijorat sirlari va sun'iy intellekt tizimlari: Biznesda savdo sirlarini himoya qilish (12.12.2024 Jozef Barber) maqola.
3. Sun'iy intellekt intellectual mulkni himoya qilishda qanday foyda keltiradi? (07.03.2024 Jeyms Godefroy) maqola.



³ <https://rouse.com/insights/news/2024/how-does-artificial-intelligence-affect-intellectual-property-protection>